"O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalar" tanlovi uchun O‘zbekiston tarixi fanidan IMTIHON DASTURI

1. «O‘zbekiston tarixi» fanining predmeti va o‘rganish ob’ekti (Fanning predmeti va dolzarb muammolari).
2. «O‘zbekiston tarixi» fanini o‘rganishning g‘oyaviy-nazariy asoslari va metodologik tamoyillari (Xolislik, ilmiylik, dealektik uslub, jahon tarixi bilan bog‘liqligi).
3. O‘zbekiston tarixini davrlashtirish (qadimgi davr, o‘rta asrlar davri va yangi davr).
4. Vatan tarixini o‘qitishning ahamiyati (Milliy va umuminsoniy tarixiy, g‘oyaviy-siyosiy, ilmiy-nazariy dunyoqarashnisingdirishdagi, milliy g‘urur va milliy tafakkurni, vatanparvarlikni tarbiyalashdagi ahamiyati).
5. Vatanimiz tarixini o‘rganishda tarixiy manbalarning o‘rni va ahamiyati (Zardushtiylik dinining mukaddas kitobi «Avesto», o‘tmish ajdodlardan qolgan boy va nodir qo‘lyozma asarlar, moddiy va ma’naviy manbalar).
6. Insoniyatning dastlabki ajdodlari. Paleolit davri («Zinjantrop», «Pitekantrop», «Neandertal odam» qoldiqlari, mehnatning o‘zgartiruvchanlik mohiyati, paleolit, olovning kashf etilishi).
7. Miloddan avvalgi XII-IX ming yilliklarda O‘rta Osiyo. Mezolit – o‘rta tosh asri (Surxondaryodagi Mochay g‘or makoni, o‘q-yoyni kashf etilishi, mehnat taqsimotini yuzaga kelishi, Jaytun, Kalataminor madaniyati).
8. Ibtidoiy tasviriy san’at. Bronza davri yutuqlari (Qoyatosh rasmlarining eng nodir namunalari – Zarautsoy, Ko‘ksaroy, Teraklisoy kabi makonlar, bronza davriga oid Zamonbobo madaniyati, Sopollitepa madaniyati).
9. Zartushtiylikning paydo bo‘lishi va uning Markaziy Osiyo xalqlari ma’naviy hayotidagi o‘rni (Zardusht, Avesto, Moniy, Yakkaxudolik).
10. Kadimgi ajdodlarimizning O‘zbekiston hududida topilgan va o‘rganilgan manzilgohlari (Teshiktosh, Seleng‘ur, Uchtut, Obirahmat, Xo‘jakent, Zarautsoy, Zamonbobo va boshq.)
11. O‘zbek xalqining etnik asosini tashkil etgan qadimgi urug‘, qabila va elatlar, ularning ijtimoiy madaniy hayoti (Etnogenez, xorazmiylar, sug‘diylar, baqtriylar, saklar, massagetlar).
12. O‘zbek xalqi etnik shakllanishining tarixiy bosqichlari (O‘zbek xalqining etnik shakllanishi uzoq davom etgan murakkab jarayon ekanligi, Turon zaminida turkiy qavmlarning azaliy etnos ekanligi. Bu jarayonning 3 davrga bo‘linishi).
13. O‘zbek xalqi etnik shakllanishining birinchi bosqichi, Markaziy Osiyoda yuz bergan siyosiy va etnik vaziyat (O‘zbeklarga xos antropologik qiyofaning shakllanishi. Eron ahamoniylari, makedoniyaliklar, arablar, mug‘ullar istilosining tubjoy aholining irqiy va etnik tarkibiga ta’siri. Turk hoqonligi davridagi etnik o‘zgarishlar).
14. O‘zbek xalqi etnogenezining ikkinchi bosqichida o‘zbek xalqining etnik shakllanishida turkiy qavmlarning o‘rni (Qoraxoniylar, qorluqlar, Saljuqiylar va boshka turkiy qavmlarning o‘zbek xalqining etnik shakllanishiga ta’siri. Eski o‘zbek tiliga asos bo‘lmish qorluq-chigil lahjasining rivoj topishi).
15. O‘zbek xalqi etnik shakllanishining uchinchi bosqichi. «O‘zbek» atamasining keng yoyilish (XV asr oxiri – XVI Markaziy Osiyoga Dashti qipchok o‘zbeklarining kirib kelishi va mahalliy axoli bilan qo‘shilib ketishi, “O‘zbek” atamasi, O‘zbekxon).
16. Ilk davlatlar haqidagi yozma manbalar («Avesto» qadimgi yozma manba sifatida, Gerodotning «Tarix», Ktesiyning «Persika», Ksenofontning «Kiropediya» asalari va ularda o‘lkamiz haqidagi manbalar).
17. «Avesto» qadimgi yozma manba sifatidagi hamiyati.

18. O‘zbek davlatchiligi, uning poydevori va taraqqiyot bosqichlari Miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda Markaziy Osiyoda dastlabki davlat tuzilmalarining paydo bo‘lishi (Katta Xorazm davlati, Baktriya podsholigi).
19. Makedaniyalik Iskandarning Markaziy Osiyoga yurishlari (Iskandar Makedonskiyning Markaziy Osiyoga bostirib kirishi, unga qarshi Spitamen boshchiligidagi qo‘zg‘olon).
20. Milodiy I-IV asrlar Kushon podsholigi – davlatchilikning yangi boskichi sifatida (Kadfiz, Kanishka davrida Kushon podsholigi).
21. «Buyuk ipak yo‘li»ning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari («Lojuvard yo‘li», «Shoh yo‘li»).
22. «Buyuk ipak yo‘li»ning Markaziy Osiyo xalqlari ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayotida tutgan o‘rni va tarixiy ahamiyati (Buyuk ipak yo‘li» Sharq va G‘arbni bog‘lovchi xalqa ekanligi, «Buyuk ipak yo‘li» – muloqot yo‘li).
23. Eftalitlar davlatining tashkil topishi (Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot: yer egaligi munosabatlari, ijtimoiy tabaqalanish, o‘troq dehqonchilik, hunarmandchilik, me’morchilik, diniy e’tiqodi).
24. Turk hoqonligi (Xoqonlikning tashkil topishi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti).
25. Markaziy Osiyoning arablar tomonidan bosib olinishi (Qutayba ibn Muslim davrida Markaziy Osiyoning batamom ishg‘ol qilinishi, islomning yoyilishi).
26. Arablar zulmiga qarshi xalq ozodlik kurashlari (G‘o‘rak va Divashtich, Abu Muslim va Muqanna boshchiligidagi qo‘zg‘olonlar).
27. Tohiriylar va Somoniylar davrida Movarounnahr (Ularning tashkil topishi, ijtimoiy-siyosiy va xo‘jalik hayoti, somoniylar davrida ma’muriy boshqaruv tizimining isloh qilinishi).
28. Qoraxoniylar davlati (Tashkil topishi, ijtimoiy-siyosiy va xo‘jalik hayoti).
29. G‘aznaviylar davlati (Tashkil topishi, ijtimoiy-siyosiy va xo‘jalik hayoti).
30. Saljuqiylar davlati (Tashkil topishi, ijtimoiy-siyosiy va xo‘jalik hayoti).
31. Markaziy Osiyo xalqlari hayotida yuz bergan Uyg‘onish (renessans) davri va uning bosqichlari (Markaziy Osiyoda markazlashgan mustaqil davlatlarning paydo bo‘lishi).
32. IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda ilm-fan va madaniy hayot (Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Farg‘oniy, Al Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy va boshqa allomalarning falsafa, tabiiyotshunoslik va tibbiyot sohasidagi faoliyatlari).
33. Aloviddin Muhammad davrida xorazmshohlar davlati (Uning taxtga kelishi, davlatning ijtimoiy-siyosiy va xo‘jalik hayoti).
34. Chingizxon qo‘shinlari tomonidan Markaziy Osiyoni bosib olinishi (Chingizxonning Markaziy Osiyoga hujumi, Buxoro va Samarqandni ishg‘ol qilinishi, Urganj fojeasi).
35. Jaloliddin Manguberdi – yurt himochisi (G‘aznadagi va Sind daryosi bo‘yidagi janglar, Ozarbayjon va Gurjiston janglari, 1999 yil noyabrda Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi nishonlanishi).

36. Amir Temurning markazlashgan davlatni tuzishi va bu davlatning boshqaruv tizimi (Movarounnahrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, islom dini ta’sirining kuchayishi, yerga egalik, soliq siyosati, temur davrida ilm-fan, madaniyat va san’at).

37. Amir Temur davlatining ichki va tashqi siyosati (Temur davlati, harbiy yurishlari, «Buyuk ipak yuli»ning tiklanishi, xorijiy davlatlar bilan diplomatik munosabatlar va savdo aloqalarining rivojlanishi).
38. Amir Temur va temuriylar davrida moddiy va ma’naviy madaniyatning tiklanishi va sivilizatsiyaning yangi bosqichga ko‘tarilishi (Temur davri ma’naviyati, Ulug‘bek akademiyasi).
39. Amir Temurning harbiy yurishlari...
40. «Temur tuzuklari»ning saltanatni adolatli, odil va to‘g‘ri boshqkarishdagi tarixiy ahamiyati (Tuzuklar mamlakatni odil idora qilishning vazirlar, amirlar va boshqa mas’ul xodimlarning ma’naviy qiyofasi va ishbilarmonligiga bog‘liqligi haqida, «Kuch adolatdadir», Tuzuklarining xorijiy tillarga tarjima qilinishi, Amir Temur faoliyatida din-u-diyonat, adolat va siyosatning mushtarakligi).
41. XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyoda ilm-fan, ma’rifat va madaniyatning yuksalishi (Amir Temir va temiriylar davrida ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi).
42. Temuriylar davrida Movarounnahrning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti (Shohruh, Ulug‘bek, Husayn Bayqaro, Bobur davri, ma’naviy yuksalish).
43. Ulug‘bek rasadxonasi (madrasasi).
44. Movarounnahrni Shayboniyxon tomonidan bosib olinishi (Ko‘chmanchi o‘zbeklar tomonidan Movarounnahrning bosib olinishi, shayboniylar davlatining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti).
45. Turkistoning xonliklarga bo‘linib ketishi (Movarounnahrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, ichki kurashlar).
46. Buxoro amirligi (Buxoroda mang‘itlar suldolasining hokimiyat tepasiga kelishi, Muhammad Rahimbiy, Amir Nasrullo, Said Muzaffarxonlar davrida Buxoro amirligidagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayot).
47. Hiva xonligi (Elbarsxon, Isfandiyorxon, Abulg‘ozixon, Muhammad Rahimxon I davrida Xiva xonligining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayoti).
48. Qo‘qon xonligi (1710 yilda minglar urug‘iga mansub Shohruhbiy tomonidan Qo‘qon xonligining tashkil topishi, xonlikning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayoti).
49. Chor Rossiyasining O‘rta Osiyoni bosib olishi va Turkistonda yuritgan mustamlakachilik siyosati (Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi, mustamlakachilik ma’muriy idora usulining joriy etilishi).
50. Buxoro amirligi va Xiva xonligining Rossiya vassaliga aylantirilishi. Qo‘qon xonligining tugatilishi (Xiva xonligining siyosiy mustakillikni yo‘kotishi, shartnomaga ko‘ra Muhammad Rahimxon o‘zini «rus imperatorining quli» deb tan olishi).
51. Chor Rossiyasining Turkistondagi mustamlakachiligi davrida maxalliy aholining ma’naviy va madaniy hayoti, ruslashtirish siyosati (Mahalliy xalklarning haq-huquqlari, ma’naviyati, urf-odatlarining oyoqosti qilinishi. Maorif, rus-tuzem maktablari.)
52. Turkiston xalqlarining chorizm mustamlakachilik zulmi va siyosatiga qarshi milliy ozodlik harakati (Milliy-ozodlik harakatlari, Po‘latxon qo‘zg‘oloni, Dukchi Eshon qo‘zg‘oloni).
53. Turkistonda jadidlar harakatining yuzaga kelishi va uning atoqli vakillari (Jadidchilik, I.Gaspirali, M.Behbudiy, Munavvarkori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, ularning ijtimoiy-siyosiy qarashlari, jadid maorifi, jadid matbuoti).
54. Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o‘rnatilishi, uning shovinistik siyosati («Sho‘roi Islom», «Sho‘roi Ulamo» va boshqa tashkilotlar, Toshkent voqealari).
55. «Turkiston Muxtoriyati» hukumati va uning faoliyati (Uning tarkibi va taqdiri, bolsheviklarning munosabati, Qo‘qon fojeasi)
56. Turkiston mintaqasida sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat va uning tarixiy ahamiyati («Bosmachi» yorlig‘ining asl ma’nosi, Qo‘qon va Marg‘ilonda 1918 yil fevral-martda Katta

Ergash va Madaminbeklarning keyinroq Shermuhammadbeklarning sovet hokimiyatiga qarshi isyonlari, ular harakatining bolsheviklar tomonidan shafqatsiz bostirilishi).

57. Xiva xonligining qizil armiya tomonidan tugatilishi (Xorazm Xalq Sovet Respublikasining tuzilishi va undagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, «Yosh xivaliklar harakati»).
58. Buxoroga qizil armiyaning bosqini va amir hokimiyatining ag‘darilishi (Buxoro Xalq Sovet Respublikasining tuzilishi, hokimiyat tizimi, g‘oyaviy-siyosiy vaziyat, «Yosh buxoroliklar» harakati).
59. Sovet tuzumining qatag‘onlik siyosati va uning O‘zbekistondagi og‘ir oqibatlari (Milliy arboblar safini bo‘lib tashlash siyosati, “Musbyuro”, “18 lar guruhi”, “Inog‘omovchilar”, “Qosimovchilar” guruhlari).
60. 20-30-yillarda Sovet hokimiyatining ziyolilarga qarshi qaratilgan qatag‘onlik siyosati (A. Ikromov, F. Xo‘jaev, S. Segizboev va boshqa davlat arboblarining qatl qilinishi, A. Fitrat, A. Chulpon, A. Qodiriy, U. Nosirlarning fojeali taqdiri).
61. 50-yillarning boshlaridagi qatog‘onlik davrida ijodkor ziyolilarning ta’qib etilishi (Oybek, Shayxzoda, Shuhrat, Shukrullo, H. Sulaymon va boshqalarning ta’qib qilinishi).
62. 80-yillardagi qatag‘onlikning yangi to‘lqini davrida milliy qadriyatlar, urf-odatlarning oyoq osti qilinishi (Sovet hokimiyatining din va diniy tashkilotlarga munosabati, ruhoniylarga nisbatan hujum uyushtirilishi).
63. O‘zbek xalqining fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga qo‘shgan hissasi (O‘zbek xalqining boshiga og‘ir sinovlar tushganligi, frontda o‘zbek xalqi farzandlarining qahramonliklari, O‘zbekistonga 100 dan ortiq sanoat korxonalari, minglab boshpanasiz oilalar, ota-onasiz bolalarning keltirib joylashtirilishi).
64. O‘zbekiston bozor iqtisodiyotiga o‘tishning besh tamoyili – “O‘zbek modeli”
65. O‘zbekiston davlat mustaqilligini qo‘lga kiritish uchun qo‘yilgan dastlabki qadamlar (“Davlat tili to‘g‘risida”gi qonun; Prezidentlik lavozimining ta’sis etilishi; “Mustaqillik deklaratsiyasi”, SSSRning tanazzulga yuz tutishi, 1991 yil avgust voqealari).
66. O‘zbekistonning davlat mustaqilligini qo‘lga kiritishi va uning tarixiy ahamiyati (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991 yil 31 avgustda bo‘lib o‘tgan navbatdan tashqari VI sessiyasi, sessiyada qabul kilingan Bayonot, O‘zbekiston davlat mustaqilligini e’lon qilinishi, «O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risida»gi qonun, 1 sentabrni - «Mustakillik kuni» deb e’lon qilinishi).
67. O‘zbekiston Respublikasi davlat ramzlarining qabul qilinishi, ularning mustaqillikni mustahkamlashdagi ahamiyati (O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i, gerbi, madhiyasi).
68. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilinishi va uning asosiy prinsiplari (Konstitutsiya loyihasining tayyorlanishi, umumxalq muhokamasi, qabul qilinishi, Konstitutsiyaning asosiy prinsiplari).
69. O‘zbekiston Respublikasining bozor munosabatlarini shakllantirish tomon yo‘l tutishi (Bozor munosabatlariga o‘tishning «O‘zbek modeli», uning tamoyillari, ularni iqtisodiy jihatdan ta’minlovchi qonunlar).
70. O‘zbekistonning o‘ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo‘lini tanlashi (Yangi davlatchilikni barpo etish, huquqiy demokratik davlat qurish).

71. Mustaqillik sharoitida O‘zbekiston parlamentining tashkil etilishi va uning faoliyati (Oliy Majlisning ko‘ppartiyaviylik asosida shakllanishi, Oliy Majlisning (2005 yilgacha) tuzilishi, vazifalari va faoliyati).
72. O‘zbekistonda davlat organlarining hokimiyat taqsimlanishi prinsipi asosida (Hokimiyat: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyatlari, ularning ishlash prinsipi).
73. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi (Qonunchilik palatasining vakolatlariga kiruvchi vazifalar).
74. O‘zbekistonda mahalliy hokimiyat organlari – viloyat, shahar, tuman hokimliklarining tashkil etilishi, ularning vazifalari va faoliyati («O‘zbekiston Respublikasi mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to‘g‘risida»gi qonun, ushbu qonunga muvofiq viloyat, shahar, tumanlarda hokim lavozimining ta’sis etilishi).
75. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining tashkil etilishi. (Fuqarolar yig‘ini, mahalla oqsoqollari Kengashlarining tuzilishi, ularning vazifalari).
76. O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalari, ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘rni (Siyosiy partiyalar, ko‘ppartiyaviylikning qaror topishi).
77. O‘zbekistonda ommaviy axborot vositalari, ularning jamiyatni demokratlashtirishdagi o‘rni va ahamiyati (Ommaviy axborot vositalari, axborot tizimining yangilanishi, jamiyatni demokratlashtirishda ommaviy axborot vositalarining roli).
78. O‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi (O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li, taraqqiyotning «O‘zbek modeli»)
79. O‘zbekiston iktisodiyotida qishlok xo‘jaligining o‘rni va imkoniyatlari. Agrar isloxotlarning moxiyati va ahamiyati (Agrar islohotlar, Dehqon–fermer xo‘jaligining vujudga kelishi, kishloqda bozor infratuzilmasining yaratilishi, g‘alla mustaqilligining qo‘lga kiritilishi).
80. O‘zbekistonning mustakillik yillaridagi ma’naviy-madaniy hayoti. (Mustaqillik yillarida ma’naviy hayot, milliy istiqlol g‘oyasi va mafkuraviy masalalar, diniy kadriyatlar va islom ma’naviyatining tiklanishi).
81. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risidagi» qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», ularning mazmun–mohiyati va hayotga tadbiq etilishi (Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar).
82. O‘zbekistonda tinchliksevar mustaqil tashqi siyosat asoslarining ishlab chiqilishi. Tashqi siyosatning asosiy tamoyillari (Tinchliksevar tashqi siyosat, jo‘g‘rofiy–strategik imkoniyat, O‘zbekistonning jahon siyosati maydonidagi o‘rni, mavqei mustahkamlanishi).
83. Prezident Islom Karimovning «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» asarining (2008) qisqacha mazmuni.
84. Vatanimiz tarixini o‘rganishda tarixiy manbalarning o‘rni va ahamiyati (Zardushtiylik dinining mukaddas kitobi «Avesto», o‘tmish ajdodlardan qolgan boy va nodir qo‘lyozma asarlar, moddiy va ma’naviy manbalar).
85. Insoniyatning dastlabki ajdodlari. Paleolit davri («Zinjantrop», «Pitekantrop», «Neandertal odam» qoldiqlari, mehnatning o‘zgartiruvchanlik mohiyati, paleolit, olovning kashf etilishi).
86. Miloddan avvalgi XII-IY ming yilliklarda O‘rta Osiyo. Mezolit – o‘rta tosh asri (Surxondaryodagi Mochay g‘or makoni, o‘q-yoyni kashf etilishi, mehnat taqsimotini yuzaga kelishi, Jaytun, Kalataminor madaniyati).
87. Ibtidoiy tasviriy san’at. Bronza davri yutuqlari (Koyatosh rasmlarining eng nodir namunalari – Zarautsoy, Ko‘ksaroy, Teraklisoy kabi makonlar, bronza davriga oid Zamonbobo madaniyati, Sopollitepa madaniyati).
88. Birinchi prezident I. Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q» asarida tarix fanining muammolari to‘g‘risidagi dolzarb masalalarning qo‘yilishi (O‘zbekiston tarixini yangicha

tamoyillar asosida o‘rganish, tarixni davrlashtirish masalasi, o‘zbek xalqining etnogenezi, o‘zbek davlatchiligi muammolari).

89. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonning qaysi shaharlari “Amir Temur” ordeni bilan taqdirlangan
90. “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” taxminan nechta davrga bo‘lib o‘rganiladi, ular...
91. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi haqida gapiring.
92. O’zbekiston Respublikasi prezidenti tomonidan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning qabul qilinishi va mazmun.
93. O’zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi konstitutsiyasi haqida (2023 yil 30-aprel).
94. O’zbekiston Respublikasining Oliy Kengashining 1992-yil 10-dekabrda bo’lib o’tgan XI sessiyasida qanday qonun qabul qilindi?
95. O’zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 18-noyabrda bo’lib o’tgan VIII sessiyasida qanday qonun qabul qilindi?
96. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni (23.09.2020 y)